

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

**SURXON-SHEROBOD VOHASI XALQ OG‘ZAKI IJODIDA QO‘NG‘IROT
ETNONIMI**

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.085>

Nosirova Sitora Shuxrat qizi

Termiz davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sitora.nosirova.24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalq og‘zaki ijodi millat tarixini, etnosning kelib chiqishi, urug‘-aymoq tarkibi va etnomadaniy xotirasini saqlab qoluvchi eng muhim ma‘naviy manbalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, dostonlar, termalar, afsona va rivoyatlar orqali hudud aholisining etnik tarkibi, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlari ifoda etiladi. Surxon-Sherobod vohasi xalq og‘zaki ijodi bu jihatdan qimmatli etnografik materiallarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, voha aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, oilaviy an‘analari, madaniy qadriyatlari va tarixiy xotirasini saqlashda muhim o‘rin tutishi tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari, Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomayi shohiy”, Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror fi manoqib ul-ahyor”, Abulg‘ozining “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” hamda “Shajarayi tarokima” asarlari.

Аннотация: В данной статье устное народное творчество входит в число важнейших духовных источников, сохраняющих историю нации, происхождение этноса, родовой состав и этнокультурную память. Этнический состав, образ жизни, социальные отношения и культурные ценности жителей района выражаются, в частности, в эпосах, сказаниях, мифах и повествованиях. Устное народное творчество Сурхан-шерабадского оазиса в этом отношении содержит ценный этнографический материал, и его роль в сохранении социально-экономической жизни, семейных традиций, культурных ценностей и исторической памяти жителей оазиса анализируется на основе исторических источников.

Ключевые слова: “Шайбанийнама” Мухаммада Салиха, “Шарафнамаи Шахи” Хафиза Таниша Бухари, “Бахр аль-асрар фи манакиб уль-Ахар” Махмуда ибн Вали, “Шаджарайи Тюрк и монгол” Абулгази и “шаджарайи тарокима”.

Abstract: In this article, folk oral creativity is among the most important spiritual resources that preserve the history of the nation, the origin of the Ethnos, the composition of the seed and the memory of ethnomathane. Especially through epics, Thermae, myths and legends,

the ethnic composition, lifestyle, social relations and cultural values of the population of the territory are expressed. The folk oral creativity of the Surkhan-Sherabad Oasis, which contains valuable ethnographic materials in this regard, is analyzed on the basis of historical sources for its important role in preserving the socio-economic life, family traditions, cultural values and historical memory of the population of the Oasis.

Key words: Muhammad Salih's" Shaybaniyya", Hafiz Tanish Bukhari's" Sharafnomayi shahiy", Mahmud ibn Wali's" Bahr al-asror fi manoqib ul-ahyor", Abulgazi's" Shajarayi turk and mogul", and" Shajarayi tarokima".

KIRISH (INTRODUCTION) Tarixiy manbalarda qo‘ng‘irotlar hamda ular istiqomat qilgan hududlarning XV–XVII asrlardagi etnik tarixi masalasi keng va serqirra tarzda yoritilgan bo‘lib, mazkur davr manbalari o‘z zamonasining siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarini aks ettirishi bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, Muhammad Solih qalamiga mansub "Shayboniynoma" asarida Shayboniylar sulolasining siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari va hududiy boshqaruv tizimi mufassal bayon etiladi. Asarda qo‘ng‘irotlar singari turkiy va mo‘g‘ul kelib chiqishiga mansub urug‘-qabilalarning davlat boshqaruvidagi mavqei, ularning ijtimoiy tuzilishi, o‘zaro etnik munosabatlari hamda siyosiy jarayonlardagi ishtiroki haqida muhim va qimmatli ma‘lumotlar keltiriladi.

Shuningdek, Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asari ham Buxoro xonligi tarixini kompleks yondashuv asosida yorituvchi asosiy manbalardan biri sanaladi. Unda qo‘ng‘irotlar bilan bir qatorda boshqa qabila va urug‘larning siyosiy hamda harbiy hayotdagi o‘rni, xonlik doirasidagi ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari, shuningdek, etnik o‘zlikni anglash va identitet shakllanishining ayrim jihatlari tahliliy ruhda bayon etilgan. Shu bois mazkur manbalar qo‘ng‘irotlarning etnik tarixi va ularning mintaqaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi rolini o‘rganishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi[1. 123]. Mahmud ibn Vali qalamiga mansub "Bahr al-asror fi manoqib ul-ahyor" asarida, asosan, tarixiy shaxslarning hayoti, ularning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini hamda ijtimoiy mavqei yoritiladi. Shu bilan birga, asarda turli qabila va urug‘larning o‘zaro munosabatlari, ittifoqlari hamda ziddiyatli jihatlari haqida ham muhim ma‘lumotlar uchraydi. Mazkur manba qo‘ng‘irotlar tarixini nafaqat jamoaviy-etnik nuqtayi nazardan, balki alohida shaxslar faoliyati misolida ham tahlil etish imkonini berishi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Abulg‘ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk va mo‘g‘ul" hamda "Shajarayi tarokima" asarlari esa turkiy va mo‘g‘ul qabilalarining kelib chiqishi, nasab-nasab daraxti hamda genealogik tizimini o‘rganishda muhim yozma manbalar sirasiga kiradi. Ushbu asarlarda qabilalarning tarixiy shakllanish jarayonlari, o‘zaro qarindoshlik rishtalari hamda etnik tarkib masalalari tizimli ravishda bayon etilgan bo‘lib, qo‘ng‘irotlar nasab tarixi va ularning boshqa qabila birliklari bilan bog‘liqligini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.[2. 89].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

Ushbu asarlarda qo‘ng‘irot qabilasining kelib chiqishi, urug‘-aymoq va nasab tizimlari, shuningdek, boshqa qabilalar bilan tarixiy aloqalari haqida batafsil va tizimli ma‘lumotlar bayon etiladi. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘z tadqiqotlarida nafaqat nasabshunoslik masalalariga, balki tarixiy voqealarning kengroq — mintaqaviy va xalqaro kontekstdagi tahliliga ham e‘tibor qaratadi. Bu yondashuv esa etnik tarix jarayonlarini yanada chuqurroq anglash, qabilalararo munosabatlarning siyosiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini ochib berishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” hamda Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asarlarida esa Buxoro xonligi va unga tutash hududlarda istiqomat qilgan qabilalarning siyosiy hayoti, harbiy yurishlari, urush va sulh davrlaridagi faoliyati yoritiladi. Mazkur manbalarda qo‘ng‘irotlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, davlat boshqaruvidagi ishtiroki hamda qabilalararo aloqalardagi o‘rni haqida muhim tarixiy dalillar keltiriladi. Bu esa ularning siyosiy tuzum doirasidagi rolini yanada aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, Abdurahmon Davlat Tole‘ning “Tarixi Abulfayzxon” hamda Mirzo Abduazim Somiy Bo‘stoniyning “Tarixi salotini Mang‘itiya” asarlari qo‘ng‘irotlar tarixini Mang‘itlar hukmronligi davri bilan bog‘liq holda o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarlarda qabilalarning siyosiy ittifoqlari, hududiy kengayish jarayonlari, o‘zaro etnik munosabatlari hamda hokimiyat tizimidagi mavqei tarixiy voqealar fonida tahliliy ruhda yoritib berilgan. Natijada, qo‘ng‘irotlarning mintaqa siyosiy hayotidagi o‘rni va ularning boshqa qabila birliklari bilan munosabatlarini kompleks tarzda tadqiq etish imkoniyati yuzaga keladi.

Umuman olganda, XV-XVII asrlarda qo‘ng‘irotlar va ularning etnik tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlar yuqoridagi tarixiy manbalarda keng qamrovda aks etgan. Ushbu asarlar qabilalarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini chuqurroq tushunish, ularning o‘zaro aloqalari va davrning etnik tuzilishini tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois, tarixshunoslikda qo‘ng‘irotlar tarixini o‘rganishda ushbu manbalar hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi[3. 223].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxon–Sherobod vohasi aholisi etnik tarkibi, asosan, o‘zbek urug‘-qabilalari negizida shakllangan bo‘lib, bu jarayonda qo‘ng‘irot, yuz, qipchoq, laqay, qatag‘on kabi etnik birliklar yetakchi mavqega ega bo‘lgan. Mazkur urug‘-aymoqlar mintaqaning demografik tuzilishi, ijtimoiy munosabatlari hamda xo‘jalik-madaniy hayotida muhim o‘rin egallaganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu etnonimlar va urug‘ nomlari xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, epik dostonlarda ham faol badiiy-unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Dostonlarda qahramonlarning nasab-nasabi, tug‘ilib o‘sgan yurti hamda jamiyatdagi ijtimoiy mansubligini ifodalashda aynan urug‘ga oid identifikatorlar muhim vosita vazifasini bajaradi. Qahramonning muayyan urug‘ga mansubligi, kelib chiqish ildizlari yoki aniq hudud bilan bog‘liqligi orqali tarixiy-etnik xotira badiiy talqin etiladi hamda ijtimoiy identifikatsiyaning o‘ziga xos shakli sifatida

gavdalantiriladi[4. 217]. Masalan, mashhur “Alpomish” dostonida Boysun va Sherobod hududlari qo‘ng‘irot urug‘i bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu holat voha tarixida mazkur etnik guruhning tutgan o‘rni va nufuzini badiiy talqin orqali aks ettiradi. Doston syujetida hududiy makon bilan urug‘ mansubligining uyg‘un holda berilishi tarixiy-etnik jarayonlarning xalq xotirasida qanday saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Tadqiqotchi B. O‘rinboyevning ta‘kidlashicha, epik matnlarda uchraydigan etnonimlar hamda urug‘ nomlari xalqning etnik xotirasini avloddan-avlodga uzatishda muhim va hal qiluvchi vosita vazifasini bajaradi.

Surxondaryo va Boysun vohasi folklor materiallarida turkiy hamda eronzabon etnik qatlamlarning o‘zaro ta‘siri ham yaqqol kuzatiladi. Bu jarayon, ayniqsa, afsona va rivoyatlarda, shuningdek, joy nomlari bilan bog‘liq og‘zaki hikoyatlarda aniq namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar S. Tursunov va T. Pardayev qayd etganidek, voha hududida saqlanib qolgan turkiy hamda fors-tojik toponimlari mintaqa aholisining tarixiy-etnik tarkibini aniqlashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Jumladan, Sherobod va Boysun hududlarida uchraydigan Maydon, Kampirtepa, Jobu kabi turkiy kelib chiqishga mansub nomlar bilan bir qatorda, Munchoq, Sayrob, Panjob, Darband, Rabod singari fors-tojik til qatlamiga oid toponimlar ham mavjud bo‘lib, ular voha aholisining ko‘p qatlamli, murakkab etnik tarkibini tarixiy-lingvistik jihatdan aks ettiradi.[5. 69].

NATIJALAR (RESULTS) Xalq og‘zaki ijodida etnik tarkib masalasi faqat etnonim va urug‘ nomlari orqali emas, balki turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati hamda madaniy an‘analar tasviri vositasida ham ifodalanadi. Folklor namunalarida muayyan etnik guruhlarning kundalik hayoti, yashash muhiti va ijtimoiy munosabatlari badiiy obrazlar orqali gavdalantiriladi.

Surxondaryo vohasi aholisi tarixan yarim ko‘chmanchi turmush tarzini olib borgan bo‘lib, ularning xo‘jalik hayotida chorvachilik va dehqonchilik yetakchi o‘rin tutgan. Mazkur iqtisodiy faoliyat turlari nafaqat moddiy hayot asosini tashkil etgan, balki madaniy an‘analar va marosimlar tizimida ham muhim aks etgan.

Shu bilan birga, baxshichilik an‘analari, termalar hamda turli xalq qo‘shiqklarida voha aholisining mehnat jarayonlari, mavsumiy xo‘jalik ishlari va turmush tarzi keng badiiy ifodasini topgan. Bu holat etnik guruhlarning kundalik hayoti, dunyoqarashi va madaniy xususiyatlarini folklor materiallari asosida kompleks o‘rganish imkonini yaratadi[6. 121].

Qo‘ng‘irot urug‘i O‘rta Osiyo hududida, xususan Surxondaryo, Qashqadaryo hamda Xorazm vohalarida keng tarqalgan Dashti Qipchoq o‘zbek qavmlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur etnik birlikning shakllanishi va kelib chiqishi masalalari bilan bog‘liq afsonaviy hamda yarim-tarixiy ma‘lumotlar XIV asr yozma manbalarida ham uchraydi.

Xususan, Rashididdin Fazlulloh qalamiga mansub Jome-ut-tavorih asarida qo‘ng‘irotlarning nasab ildizlari, ularning mo‘g‘ul va turkiy qabila ittifoqlari tarkibidagi o‘rni haqida muhim tarixiy rivoyatlar va genealogik ma‘lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Abulg‘ozi Bahodirxonning Shajarayi turk kitobida ham qo‘ng‘irot urug‘ining kelib chiqishi, nasab daraxti

hamda boshqa qabila birliklari bilan qarindoshlik aloqalari xususida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan. Mazkur manbalar qo'ng'irotlarning etnik tarixini o'rganishda muhim yozma asos vazifasini bajaradi.[7. 101].

Abulg'oz Bahodirxon "Shajarai turk" asarida mazkur rivoyatni "Qo'ng'irot elining zikri" sarlavhasi ostida qisqa, ammo mazmunan muhim tarzda bayon etadi. Unda keltirilishicha, Qayon naslidan bo'lgan bir kishining uch o'g'li — Cho'rluq mergan, Kubayshira va Tusbuday mavjud bo'lgan. Cho'rluq mergan o'q otishda benihoya mohir bo'lib, bir kuni ukasi Kubayshira bilan ot ustida turib bahsga kirishadi. U yoyini tortib, o'q uzishga chog'lanadi. Kubayshira xavfsirab, boshini otining bo'yniga yashiradi.

Bir oz fursatdan so'ng u boshini ko'targanida, Cho'rluq ukasiga zarar yetkazishni istamay, uni faqat qo'rqitish niyatida o'q uzishga qaror qiladi. Kubayshiraning qulog'ida katta halqa bo'lganligi bois, Cho'rluq o'qni aynan shu halqadan o'tkazib yuboradi. Rivoyat davomida aytilishicha, Cho'rluq merganning Qo'nqirat ismli o'g'li bo'lgan va qo'ng'irot elining barchasi ana shu farzand naslidan tarqalgan deb hisoblanadi.

Mazkur genealogik rivoyat qo'ng'irot urug'ining kelib chiqishini afsonaviy qahramonlar orqali izohlashga xizmat qilib, ularning nasab daraxtini qadimiy turkiy an'analar asosida talqin etadi[8. 68]. Qo'ng'irotlar nasab rivoyatlariga ko'ra, urug'ning eng qadimiy oqsoqoli sifatida Qo'ng'irotota yoki Qo'ng'irbiy nomi tilga olinadi. Rivoyatlarda bayon etilishicha, uning katta xotinidan to'rt nafar o'g'il — Voqtang'ali, Qo'shtang'ali, Qonjig'ali va Aynni tug'ilgan bo'lib, aynan shu farzandlar qo'ng'irot qavmining asosiy urug' tarmoqlariga asos solgan deb qaraladi. Kichik xotinidan tug'ilgan Tortuvli ismli beshinchi o'g'il esa nisbatan mayda, ikkilamchi tarmoqlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Shu tariqa, genealogik an'analarga muvofiq qo'ng'irotlar besh asosiy urug'ga ajratilib, ularning har biri keyingi davrlarda ichki bo'linishlar asosida yana ko'plab kichik shoxobchalarga tarqalgan. Bunday nasab tuzilmasi urug' ichidagi ijtimoiy tartib, qarindoshlik aloqalari hamda o'zaro mas'uliyat tizimini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Etnonimning etimologiyasiga doir qarashlar ham turlicha talqin qilinadi. Ayrim tilshunos olimlar "qo'ng'irot" atamasini "qo'ng'ir" va "ot" so'zlarining qo'shilishidan yuzaga kelgan murakkab birlik sifatida izohlaydilar. Biroq X. Doniyorovning fikricha, mazkur atama aslida mo'g'ul tiliga mansub bo'lib, "qoraqarg'a" ma'nosini anglatuvchi etnonim sifatida shakllangan. Bu yondashuv qo'ng'irotlarning qadimiy etnik ildizlari hamda turkiy-mo'g'ul qabila ittifoqlari bilan tarixiy bog'liqligini yoritishda muhim ilmiy mulohaza sifatida baholanadi[9. 100]. Qo'ng'irotlarning O'zbekiston hududiga kelib joylashishi haqida turli farazlar mavjud; ayrim tadqiqotchilar Qashqadaryo va Surxondaryo hududida ular Shayboniyxon bosqinidan oldin yashamagan deb hisoblaydi. Shu bilan birga, qo'ng'irot qavmining keksa vakillari "Alpomish" dostonining asl vatani sifatida G'uzor-Boysun dashtlarini ko'rsatadilar[10. 127].

XULOSA (CONCLUSION) Shu bilan birga, Surxon–Sherobod vohasi dostonlari nafaqat qahramonlarning jasorat va sarguzashtlarini, balki voha aholisining ijtimoiy hayoti va oilaviy munosabatlarini ham batafsil yoritadi. Mazkur dostonlarda oila a'zolarining ijtimoiy

rollari, oilaviy hurmat va yordam tamoyillari, shuningdek, xalq davolash usullari, urf-odat va marosimlar badiiy obrazlar orqali aks ettiriladi.

Shu asosda aytish mumkinki, Surxon–Sherobod vohasi xalq og‘zaki ijodi nafaqat boy badiiy meros, balki mintaqa aholisining tarixiy-etnik tarkibi, urug‘-aymoq tuzilishi, madaniy xotira va urf-odatlarini saqlovchi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Dostonlarda uchraydigan qo‘ng‘irot etnonimi qahramonlarning kelib chiqishi va voha tarixiy konteksti bilan bog‘lanib, etnik xotira hamda ijtimoiy munosabatlarni avloddan-avlodga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, xalq og‘zaki ijodi Surxon–Sherobod vohasi etnos tarixini, etnik xotirani, madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy hayotning turli jihatlarini saqlash va o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алпомиш. Ўзбек қаҳрамонлик достони. - Т.: Шарқ, 1998.
2. Алпомиш. (Фозил Йўлдош ўғли варианты). - Т.: Ёзувчи, 1999.
3. Алпомиш. (Хўшбоқ Мардоноқул ўғли варианты). - Т., 2000.
4. Nafasov T. Etnomadaniy jarayonlarda etnonimlarning o‘rni // Etnos va madaniyat: an’anaviylik va zamonaviylik. «Akademik Karim Shoniyozov o‘qishlari» turkumida etnologlarning V Respublika ilmiy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent, 2009.
5. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р. Ўзбекистонда топонимик номлар ва уларнинг тарихи. – Термиз: Сурхон-Нашр, 2017.
6. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
7. Qarshiyev I. Surxon-Sherobod vohasi qo‘ng‘irotlarining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.
8. Қаюмов А. Шеробод воҳаси аҳолисининг этник таркиби XIX аср охири - XX аср бошлари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1998, № 3.
9. Қаюмов А. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон–Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари // Ўзбекистон тарихи. – 2001. – № 4. – 27–30-бетлар.
10. Қаюмов А. XX аср бошларида Ўзбекистон ҳудудида этник ҳолат. – Тошкент: 2015.
11. Ўринбоев Б. «Алпомиш» достони матнида этнографизм // «Алпомиш» достони ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. - Тошкент: Фан, 1999.
12. Файзуллаева М.Ҳ., Кичкилов Ш.Ҳ. Хомкон – тарихий этнографик маскан (этногенез, этник тарих ва этномаданият). – Тошкент: Замон-Полиграф ОК, 2022.
13. Kichkilov Sh. Ko‘hitang tog‘ qishloqlari aholisining ijtimoiy turmushida an’anaviylik va transformatsion jarayonlar. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2025.